

JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'LOMON!**Tong**Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!№: 29 (67246)
2019-yil 22-iyul**Yulduzi**

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

**— O'ZBEKISTONLIK BOLALAR
JUDA TARBIYALI EKAN,****– deydi «Cambridge Assessment International
Education» tashkiloti vakili Gvendid Xardkastel xonim****Prezident maktablariga
asosiy qabul imtihonlari 21–24-iyul kunlari
bo'lib o'tmoqda.**

– O'zbekistonlik bolalarning o'zini tutishi, atrof-dagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, umuman o'quvchilarning tarbiyasi juda yuqori ekani e'tiborimni tortdi. Bilimi borasida esa 5-sinf o'quvchilari juda kuchli, biroq bu bilim yuqori sinf o'quvchilarida kuzatilmaydi. O'quvchi qancha yuqori sinfga ko'tarilgan sari bilimi pastlab borayotganini sezdim. Bu borada, avvalo, ota-onalar hushyor bo'lishlari juda muhim, – deydi Gvendid Xardkastel xonim.

- ✓ 2019–2020-o'quv yilida **Namangan, Nukus, Xiva va Toshkent** shaharlarida Prezident maktablari ish boshlaydi.
- ✓ 2019–2021-yillarda Respublikaning **14 ta hududida** Prezident maktablari faoliyati yo'lga qo'yiladi.
- ✓ O'quv jarayoni **«STEAM» dasturi** asosida amalga oshiriladi va «STEAM» yo'nalishidagi aniq fanlar Buyuk Britaniyaning Cambridge tashkiloti dasturi asosida **ingliz tilida olib boriladi.**

— O'ZBEKISTONLIK BOLALAR JUDA TARBİYALI EKAN, — deydi «Cambridge Assessment International Education» tashkiloti vakili Gvendid Xardkastel xonim

Xabaringiz bor, «Cambridge Assessment International Education» Buyuk Britaniya tashkiloti tomonidan saralash imtihonlarini o'tkazgan edi. Nima uchun aynan ushbu tashkilot tanlandi? Bu savolga kuni kecha Xalq ta'limi vazirligida bo'lib o'tgan konferensiyada Gvendid Xardkastel xonim quyidagicha javob berdi:

— «Cambridge Assessment International Education» tashkilotining shiori SHAFFOFLIK, OCHIQLIK VA TOZALIK. Shu bois ham O'zbekistondan taklif tushgan bo'lsa, ajabmas. Maqsadimiz, imtihonlarning shaffofligini ta'minlash. Chunki bu yerda inson taqdiri turibdi. Biz aynan imtihonlarning shaffof o'tishi uchun O'zbekistondamiz. Test savollarimizni oson deb bo'lmaydi, albatta, sababi bilimdonlar orasidan eng zo'rini tanlab olishdir.

Shuningdek, o'zbekistonlik bolalarning o'zini tutishi, atrofda qilargana

hurat bilan munosabatda bo'lishi, umuman, o'quvchilarning tarbiyasi juda yuqori ekanini e'tiborimni tortdi. Bilimi borasida esa 5-sinf o'quvchilari juda kuchli, biroq bu bilim yuqori sinf o'quvchilarida kuzatilmaydi. O'quvchi qancha yuqori sinfga ko'tarilgani sari bilimi pastlab borayotganini sezdim. Bu borada, avvalo, ota-onalar hushyor bo'lishlari juda muhim, — deydi Gvendid Xardkastel xonim.

Saralash imtihonlari natijalariga ko'ra, bir xil ball to'plash holati yuzaga kelganda, ya'ni bir nechta nomzod bir xil umumiy ball to'plagan vaziyatda, afzallik imtihonda «S» toifasidagi savollarga ko'proq ball yiqqanlarga, keyin esa «B» toifasidagi savollarga ko'proq ball to'plaganlarga berildi. Nomzodlar barcha toifadagi savollar bo'yicha bir xil umumiy va teng ball to'plagan taqdirda, nomzodlarni tug'ilgan sanasi bo'yicha saralanadi, bunda kichikroq nomzod afzal ko'rildi.

Saralash imtihoni natijasiga ko'ra, 11520 nafar nomzodlar 21–24-iyul kunlari Namangan, Nukus, Xiva va Toshkent shaharlarida tashkil etiladigan Prezident maktablarining asosiy qabul imtihonlarida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Nomzodlar imtihonning asosiy bosqichida talabgorlar soni bir o'ringa 20 nafardan oshmagan holda ishtirok etmoqda.

O'quvchilar to'plagan ballarning asosiy qismi ya'ni 80 foizini tanqidiy fikrlash va mantiqiy bilimni talab etuvchi topshiriqlarni bajarish orqali yig'ishlari mumkin. Ballarning faqat 20



Prezident maktablariga qabul qilinish ehtimoli yuqoriligicha qoladi.

— Nomzodlar istagiga ko'ra, ushbu yo'nalishdagi imtihon savollari ingliz tilida emas, Davlat tilida berilishi mumkin. Asosiy imtihonlar natijasiga ko'ra, har bir sinfga 24 nafar o'quvchi, ya'ni har bir maktabning 5–10-sinfi- raga 144 nafardan o'quvchi o'qishga qabul qilinadi, — deydi xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Sarvar Babaxodjayev. — Hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi asosiy imtihon natijalariga ko'ra, Prezident maktabiga qabul qilinmagan bir guruh o'quvchilarni boshqa ixtisoslashgan maktablarga imtihonsiz qabulni tavsiya qilishni rejalashtirmoqda, — dedi vazir o'rinbosari.

Shuningdek, «Cambridge Assessment International Education» qaroriga ko'ra, nomzodlar va ularning ota-onalari imtihon natijalari yuzasidan apellyatsiyaga berish hamda imtihon ishlarni tekshirish huquqiga ega emas.



foizigina ingliz tili faniga to'g'ri keladi. Shu bois nomzodlar ingliz tilidan mukammal tayyorgarlikka ega bo'lmay, tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lsa ham ularning

KITOBLAR BIZ BILAN SUHBATLASHADI

Men kitobni mo'jizalar xazinasi, degim keladi. Ular inson ongida mo'jizalar yaratishga qodir.

Dunyodagi eng mukammal ixtirolar ham kitob orqali dunyoga keladi. Shu bois munis onajonlarimiz farzandlari tug'ilishi bilan alla aytishadi. Ularga mutolaaga bo'lgan muhabbatni oshirish uchun turli ertaklar aytib, kitobga bo'lgan mehrini oshirishadi.

Agar uyga kitob olib kelinasa, oilada kitob o'qilsa, bu an'ana, albatta, davom etadi. Uyida kitob yo'q xonadon zimiston misoli. Insoniyat yaratgan ezgu ishlarning bari kitob sahifasida saqlanib qolgan. O'tgan zamonlarda ham ilmi insonlar hamisha qadrlangan va bu haqiqat hozirgi kungacha amalda bo'lmoqda. Aynan kitobxon-



larga Yurtboshimiz ham e'tibor qaratib, «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovini joriy etdilar. Endi kitob o'qib, o'z kuchi bilan yutuqqa erishgan har bir yosh avtomobil minadi, bu esa yoshlarni o'qishga, kelajakka bo'lgan intilishga, ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat beradi. Buyuk fransuz shoiri Franchiska Petrarka kitoblar haqida shunday degan edi: «Kitoblarda o'ziga xos joziba bor, kitoblar bizga huzur bag'ishlaydi, ular biz bilan suhbatlashadi, bizga oliyjanob maslahatlar beradi, bizning jonli do'stlarimizga aylanadi».

Aziz tengdoshlar, ko'p kitob mutolaa qilib, yurtimizga, jamiyatimizga foydasi tegadigan inson bo'lib, imkoniyatlardan unumli foydalanaylik.



EZGULIKKA YETAKLAR

Mening do'stimdir kitob, Ezgulikka yetaklar. Mangulikka nur, o'tob, Unda ajib ertaklar.

O'qib, mag'zini chaqsang, Olam-olam bor ma'no. Ko'proq kitob o'qisang, Bahoiing bo'lar a'lo.

Sevinch HAMROYEVA, Qashqadaryo viloyati, Abdulla Oripov nomidagi DIMning 8-sinf o'quvchisi

Chingiz ERSHOHIN



ketdi. Biroq, birgina Anvar nima uchundir jim edi. Ustoz unga razm solib:

– Sen kim bo'lmoqchisan? – dedilar. Hamma Anvarga qaradi. U biroz sukutdan so'ng:

– Inson bo'laman... Farzandlarini tashlab ketmaydigan ota bo'laman, – dedi ovozi o'zgarib. Ko'zida esa yosh yiltiragandek bo'ldi. Hammamiz

ANVARNING JAVOBI

bizni o'ylantirib qo'ydi

O'quv yili yakunida «Kim bo'lsam ekan?» mavzusida insho yozgan edik. O'shanda ustoz avval barchamizga bu savolni og'zaki berganlarida sinfda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Har kim o'zi

yozmoqchi bo'lgan inshosini qisqacha sharhlay ketdi.

– Men shifokor bo'lmoqchiman, – dedi Anora. – Men o'qituvchi..., men san'aktor... – orzular izhori shu zaylda sinfxonani tutib

jimib qoldik. Uning javobi bizni o'ylantirib qo'ydi.

**Zebuniso AHMEDOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kasbi tumanidagi
52-umumta'lim maktabi
o'quvchisi**

MEHRNING KUCHI



Bir jamiyatshunos olim talabalariga qiziq vazifa beradi. Ular shaharning xarobaga aylanayotgan hilvat joylariga borib, u yerda yashayotgan yoshlar bilan ko'rishib, oldindan tayyorlangan anкета-so'rovnoma savollarga javob olishlari kerak edi. So'rovnoma to'ldirilgach, yoshlarni kelgusida qanday kelajak kutayotgani haqida taxminiy hisobot yozishlari belgilangandi.

Talabalar vazifalari yuzasidan ikki yuz nafar yoshlar bilan ko'rishadilar va anketani muhokama uchun tayyorlaydilar. Nihoyat, ular o'z hisobotlarida o'sha ikki yuz nafar yoshlar haqida shunday xulosa beradilar: «Ularning hech qanday omadi yo'q. Yigirma yoshiga qadar vafot etishmasa yoki birovni o'ldirib qamallishmasa, hayotlarini eng yaxshi ehtimolga ko'ra bandargohda hammollik qilib o'tkazadilar».

Oradan roppa-rosa yigirma besh yil o'tadi. Ayni universitetda faoliyat yuritayotgan boshqa jamiyatshunos olim bilim dargohining kutubxonasida o'sha ikki yuz nafar o'g'il-qizlar haqidagi so'rovnomalar va hisobotlarga duch kelib qoladi. So'ng talabalaridan o'zi shakllantirgan guruhga hisobotlarda nomi keltirilgan yoshlarni izlab topib, bugun ular qanday holatda yashayotganliklari yuzasidan yana hisobot tayyorlashni aytadi.

Talabalar ro'yxatga nomi kiritilganlarning vafot etganlari va boshqa shaharga ko'chib ketganlaridan tashqari bir yuz sakson nafarini topishga muvaffaq bo'ladilar. Mana shu bir yuz sakson nafar kishining bir yuz yetmish oltitasi doktor, advokat, tijoratchi, siyosatchi kabi yuqori lavozimlar va killari bo'lib chiqadi.

Har ikki hisobotni solishtirgan professor juda hayratda qoladi. Shu holatning sababini bilishga ahd qiladi va bir yuz yetmish olti nafar kishidan muvaffaqiyatlarining sababini surishtira boshlaydi. Barchasidan aynan bir xil javob oladi:

– Muvaffaqiyatimizga o'qituvchimiz sabab erishdik. Professor o'sha muallim hali hayot ekanini va shu atrofda yashayotganini bilib, chuqur ehtiroq va qiziqish bilan uning xonadoniga boradi.

U o'qituvchi juda keksayib qolgan, ammo tabiati og'ir-vazmin xonim edi. Professor har ikki hisobot haqida ma'lumot bergach, undan bu mahalladagi bolalarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun qanday sirli tamoyildan foydalanганиni so'raydi. Eshitgan so'zlaridan ko'zlari porlab ketgan muallim astagina jilmayib:

– Buning siri juda oddiy, – deydi. – Men o'sha bolalarni yaxshi ko'rar edim...

**Turk tilidan
Alisher TURSUNOV
tarjimasi**

MAHALLA KITOBXONLARI BELLASHDI

unda birinchi o'rin menga nasib etdi



Shahrimizdagi mahalla yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha «Men o'qigan kitob» nomli ajoyib ko'rik-tanlovning Kogon shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda 14–20 hamda 21–30 yosh toifasi bo'yicha har bir mahalla fuqarolar yig'inidan 2 nafardan jami 44 nafar kitobxonlar qatnashishdi. Ishtirokchilarga vazifa qilib topshirilganday, ular ma'lum bir o'zbek va jahon adabiyotiga oid asarning mazmuni, g'oyasi va bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot berishdi. Har bir asar 50 ballik tizimda baholanib, kitobxonlar 100 ball to'plashlari lozim edi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 14–20 yosh toifasi bo'yicha 3-o'rinni «Bunyodkor» MFY ishtirokchisi Muxlisa Sattorova, 2-o'rinni «Temiryo'lchi» MFY vakili Olesya Dementayeva egalladi.

Men yozuvchi Oybekning «Qutlug' qon» va A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asarlarini sharhlab berdim. G'oliblikni qo'lga kiritar ekanman, avvalo, «Turkiston» mahalla fuqarolar yig'ini ishtirokchisi sifatida mahalladoshlarimga quvonch ulashganimdan juda xursand bo'ldim. Qolaversa, diplom, kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanib, tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanma oldim. 21–30 yosh toifasi bo'yicha bellashganlar orasida esa maktabimizning ingliz tili fani o'qituvchisi Ma'mura Hayitova 1-o'ringa sazovor bo'lganlaridan ikki bor quvon-dim. Endilikda viloyat bosqichida ham maktabim va mahallam nomini munosib himoya qilishga harakat qilaman.

**Taxmina KUZIYEVA,
Buxoro viloyati, Kogon shahridagi
4-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

Joriy yil yoz mavsumida jizzaxlik bolajonlarning ta'tilda mazmunli dam olishlarini tashkil etish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

TA'TIL GASHI

G'allaorol tumanidagi «Kamolot» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida hordiq chiqarayotgan bolajonlarning sho'x-shodon o'yin-kulgilari tinmaydi.

– Bolalarning kayfiyati juda yaxshi. Kelajagimiz vorislariga ko'rsatilayotgan e'tibor tahsinga sazovor, – deydi oromgoh rahbari, xalq ta'limi a'lochisi Akmal Aliqulov.

Ayniqsa, Shahlo Xo'jabekova rahbarligida tashkillashtirilgan turli tanlovlar, Sangzor daryosiga tutash joydagi bog'rog'lar, buloqlarni tomosha qilib, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish kabi tadbirlar bolajonlarga manzur bo'lmoqda. Shu tumaning 84-umumta'lim maktabidagi oromgohda esa Shohista Inoyatova, Muborak Jonzoqova, Madina Esirgapova kabi tarbiyachilar bolajonlarning ko'ngilli hordiq chiqarishlari uchun o'z tajribalarini ishga solishmoqda. 20-umumta'lim maktabidagi sog'lomlashtirish maydonchasida tashkillashtirilgan «Bulbulcha», «Boychechak» kabi guruhlarining qo'ligul qizlari tikkan turli kiyim-kechaklar kishi ko'zini quvontiradi.



Jizzax shahridagi 9-umumta'lim maktabidagi sog'lomlashtirish oromgohidagi bolajonlarning qalbida esa har bir o'tgan kun o'ziga xos iz qoldirmogda. Dilfuza Shokirova rahbarligidagi oromgohda bolajonlar «Mening o'kam», «Qanotli himoyachilarimiz» kabi ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishmogda.

Shu hududdagi 16-umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan «Yulduzcha» nomli oromgohga esa tajribali ustoz Sojida Jo'rayeva rahbarlik qilmogda. Bosh yetakchi Mohira Omonqulovaning aytishicha, mazkur maskanda turli musobaqalar bilan bir qatorda bolajonlar orasida «Yelkada kurash», «Tortishmashoq» kabi milliy o'yinlar tashkil etilgan.

Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi yetakchi mutaxassisi To'liboy To'ychiyev ta'kidlaganidek, yuqoridagi oromgohlarda olib borilayotgan barcha ishlar bolajonlarning dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmogda.

Abdulla SAIDOV

YASHNOBOD SPORT MAKTABIDA...

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 2-Bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari hamda tuman umumta'lim maktablari kunduzgi oromgohlari dam oluvchilari o'rtasida suzish musobaqasi bo'lib o'tdi.

Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi, mahalla faollari, Yashnobod tumani Jismoniy tarbiya va sport bo'limi va mazkur sport maktabi hamkorligida tashkil etilgan musobaqada 112 nafar sportchilar ishtirok etishdi.

– Suzish sporti odamning jismoniy chiniqishi, chiroyli qomatga ega bo'lishini ta'minlashi barobarida ruhiy zo'riqishlar oldi olinadi. Har kuni maktabimiz farzandlarini ushbu sportga berishni istagan ota-onalar bilan gavjum bo'ladi, – deydi sport maktabi direktori Sherzod Tadjiyev. – Murabbiylarimiz har bir tarbiyalanuvchi bilan



Anvar Tursunaliyev va Bahrom Rahimovlar 2-, 3-o'rinlarni egallashdi. Ushbu masofaga suzish bo'yicha qizlar o'rtasida Yelena Koslova g'olib bo'ldi. Madina Nigmatulayeva hamda Kamola Fyodorovalar



keyingi o'rinlarga munosib topildi.

50 m ga erkin suzish bo'yicha 9–10 yoshlilar o'rtasida Anvar Bahodirov va Nodira Luqmonova g'oliblikni qo'lga kiritdi. 11–12 yoshlilar

alohida shug'ullanishga harakat qiladi. Bu kabi musobaqalarda o'quvchilari-mizning yuqori natijalarini ko'rib, qilgan mehnatlarimizdan ko'nglimiz to'ladi.

Musobaqa natijalariga ko'ra, 25 m masofaga suzish bahslarida 7–8 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida J.Abdujamilov 1-, D.Zayniddinov 2-, I.Karimov 3-o'rinni egalladi. Qizlar bahslarida S.Sharipova g'oliblikni qo'lga kiritdi. D.Sobirova va D.Salohiddinova qolgan o'rinlarni zabt etishdi.

50 m masofaga suzish bo'yicha 9–10 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida 1-o'rin Anvar Tohirovga nasib etdi.



o'rtasida A.Mahkamov va Sevara Mirzayeva tengdoshlari orasida mutlaq tengsizligini isbotladi.

Nurbek QIDIRALIYEV



«KELAJAK SARI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR BILAN»

shiori ostidagi festivalda hindistonliklar mehmon bo'ldi, – deydi Namangan BABM direktori Hayotxon opa Mamatova.

– Markazimizda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan 5 tashabbus bo'yicha qator tadbirlar o'tkazayotgandik. Axir yoz kunlari uzun, ayni ta'til vaqtida bolalarimiz hunarli bo'lib qolishsin, deymiz-da, ta'kidladi jonkuyar opa. – Sizga o'quvchilaringizning yutuqlaridan qay birini aytay? – degan savollaridan biz ham biroz shoshib qoldik. Chunki namanganlik o'quvchilarning muvaffaqiyatli bisyorligini hali bilmagandik-da!

– Bu yil markazimiz faoliyatida juda ko'plab yangiliklar bo'ldi. «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» munosabati bilan, markazda «Kelajak sari innovatsion texnologiyalar bilan» deb nomlangan festival-tanlov tashkil qilindi. Unga Hindistondan bir necha mehmonlar hamda Quvaytdagi maxsus maktab direktori Doktor Anas Ahmad tashrif buyurib, O'zbekiston va Namangan shahri haqida o'z taassurotlarini so'zladilar.

Navbatdagi ko'rik-tanlovlarimizdan biriga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov hamda nufuzli mehmonlar tashrif buyurishdi. O'quvchilarning

avtomodel, avia-raketa model, kemasozlik, robototexnika, ular yaratgan elektron o'yinchoqlar, texnik ishlanmalardan iborat ko'rgazmalar tashkil etildi. Hakamlar hay'ati tomonidan berilgan natijalarga ko'ra, «Kemasozlik» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin – 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi Hasanboy Rahimjonovga, 2-o'rin – To'raqo'rg'on tumandagi 4-DIMI o'quvchisi Akbar Mahmudovga, 3-o'rin – 10-umumta'lim maktabi o'quvchisi Quvonchbek Jamoliddinovga nasib etdi.

«Elektron o'yinchoq» yo'nalishi bo'yicha esa 1-o'rin – Namangan tu-

manidagi 79-umumta'lim maktabi o'quvchisi Tursunali Abdulboriyevga, 2-o'rin – 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi Islomjon Tursunovga, 3-o'rin – 1-umumta'lim maktabi o'quvchisi Samandar Madaminovga nasib etdi. Qizg'in bahs va munozarlarga boy o'tgan tanlovda g'olib hamda turli nominatsiyalar sohiblariga mukofotlarni Xalq ta'limi vaziri hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i V. Rajapovlar topshirdilar. O'ylaymanki, bu tanlov o'quvchilarning xotiralarida bir umr saqlanib qoladi.

«Yashil sayyoramiz taqdi-

ri o'z qo'limizda!» Respublika sirtqi ekologik ko'rik-tanlovda esa shahar, tuman umumta'lim maktabi o'quvchilari va «Barkamol avlod» bolalar markazlari to'garak a'zolaridan jami 1120 ta o'quvchilar tuman va shahar bosqichlarida ishtirok etishdi. Tanlovda bir necha yo'nalishlar bo'yicha g'oliblikka erishgan o'quvchilar turli esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Bunday belashuvlar sabab o'quvchilar tengdoshlari bilan tajriba almashadilar, yangi do'stlar



orttiradilar, kelgusidagi rejalari xususida suhbatlashadilar. Iqtidorli o'quvchilaringizning yaratayotgan har bir modeli-yu ijodiy ishi bizning nazariymizdan chetda qolmaydi, – dedi Hayotxon opa.

TAHRIRIYATDAN: Biz ham ularning bu fikrlariga qo'shildik. Zero, «Yoshlikdan olsang hunar, hunardan rizqing unar», deb bejiz aytilmagan. Siz bugun kichikroq ixtiro qilasiz, balki yasagan buyumingizdan ko'nglingiz to'lmayotgandir, lekin bu buyumlar sizning kelgusida amalga oshirajak ishlarigizning debochasi bo'lsa, ne ajab?! Shunday ekan, o'qing, izlaning, iste'dodingizni, iqtidoringizni boricha namoyish qilishdan tortinmang. Namanganlik tengdoshlaringizga esa bu borada yanada ulkan natijalarni qo'lga kiritishlariga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi



Lesson 29

SUMMER!!!

E	M	S	G	M	B	F	J	M	T	O	G	T	Y
F	F	R	R	I	L	E	L	C	I	S	P	O	P
Q	A	E	E	O	Q	Q	W	U	F	A	K	O	I
Y	N	S	E	L	O	D	S	K	O	Y	R	V	C
S	R	S	A	B	K	D	I	A	U	J	A	Z	N
V	N	U	N	N	S	N	T	V	C	N	P	Q	I
N	U	N	T	O	D	I	I	U	I	H	V	C	C
H	S	S	G	D	L	A	R	R	O	N	O	A	A
T	J	C	N	H	F	E	L	F	P	K	G	M	O
C	T	R	I	Q	Y	L	M	S	V	S	Y	P	H
O	L	E	M	T	A	J	O	R	U	U	Y	I	I
N	T	E	M	L	L	D	H	W	E	M	N	N	P
O	D	N	I	N	P	Q	G	Y	E	T	M	G	K
N	B	B	W	B	F	I	Q	L	G	R	A	E	E
Y	I	U	S	M	I	W	S	U	Z	U	S	W	R

LEARN TO APPRECIATE (reading time)



Once upon a time, there was a man who was very helpful, kindhearted, and generous. He was a man who will help someone without asking anything to pay him back. He will help someone because he wants to and he loves to. One day while walking into a dusty road, this man saw a purse, so he picked it up and noticed that the purse was empty. Suddenly a woman with a policeman shows up and gets him arrested.

The woman kept on asking where did he hide her money but the man replied, «It was empty when I found it, Mam». The woman yelled at him, «Please give it back, It's for my son's school fees». The man noticed that the woman really felt sad, so he handed all his money. He could say that the woman was a single mother. The man said, «Take these, sorry for the inconvenience». The woman left and policeman held he man for further questioning.

The woman was very happy but when she counted her money later on, it was doubled, she was shocked. One day while woman was going to pay her son's school fees towards the school, she noticed that some skinny man was walking behind her. She thought that he may rob her, so she approached a policeman standing nearby. He was the same policeman, who she took along to inquire about her purse. The woman told him about the man following her, but suddenly they saw that man collapsing. They ran at him, and saw that he was the same man whom they arrested few days back for stealing a purse.

He looked very weak and woman was confused. The policeman said to the woman, «He didn't return your money, he gave you his money that day. He wasn't the thief but hearing about you son's school fees, he felt sad and gave you his money». Later, they helped man stand up, and man told the woman, «Please go ahead and pay your son's school fees, I saw you and followed you to be sure that no one steals your son's school fees». The woman was speechless.

Internet source

- Camping
- Frisbee
- Outdoors
- Play
- Shorts
- Sun
- Swimsuit
- Diving
- Grass
- Park
- Popsicle
- Sprinkler
- Sunscreen
- Tan
- Flowers
- Hot
- Picnic
- Sandals
- Summer
- Swimming
- Watermelon



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

– Ha, indamasdan dinovzavrlar bilan o'zing urushga ketyapsanmi? Do'stga aytish yo'q ekan-da.

Uydan endi chiqdim-ku, hozir seni chaqirmoqchidim, – dedim yolg'ondan.

– Aldamayapsanmi?

– Nega alday? Undan ko'ra, chelakni ko'tar, qo'lim og'rib ketdi.

Endi o'n qadamcha yuruvdik, Normamat tog'a eshak aravasida o'tib qoldi.

– Donishqishloqqami?

– Ha.

– Kit ovigami?

– Qayerdan bildingiz?

– Chiqinglar, men ham o'shaqqa.

Singlimdan xabar olgani ketyapman.

Aravaga chiqishimiz bilan Normamat tog'aning eshagi bizga qarab o'qrayib qo'ydi.

Normamat tog'a sezgir emasmi, eshagini urishib berdi:

– Bular bola-ku! Namuncha qovog'ingni solmasang. Ikkalasin qo'shsa ellik kilo ham chiqmaydi.

– Men o'ttiz besh kiloman, – dedi Matrayim hozirjavoblik bilan.

– Ana, nima, dedim. Ma, undan ko'ra gilosdan yeb ol.

Normamat tog'a chelakdagi gilosdan bir hovuch olib eshagiga berdi. – Mana xarita, yaxshilab ko'rib ol. Tag'in adashib yurma. Qisqa yo'ldan yuramiz. Tulkidara orqali Donishqishloqqa qarab yursak, yaqin. Tushunding-a?!

BILIMDON ESHAK

Normamat tog'aning eshagi gilosni paqqos tushirdi-da, tushundim, degandek bosh silkidi.

– Iya, – dedi Normamat tog'a. – Gilosning danagini yutib yubordingmi? Eshak menga qaradi.

– Bu danaksiz gilos. Tolga ulangan, – dedim men.

– E, ha. Otang yaratgan gilos shumi? U yaxshi bog'bon, zoologiyani o'qigan-da.

– Zoologiyani botanikaga nima aloqasi bor? – dedim men.

– Yoshsan-da, bolam, yoshsan. Fanlar o'zaro bog'liqligini Shotursun aka o'rgatmaganmi?

– O'rgatgan, – dedi Matrayim ko'zlarini pipiriradi. Mana, men kitlar bilan olishish uchun to'qmoq'imni oldim. Sen-chi? Matrayim menga qaradi va so'zida davom etdi. Vandam bergan kamon bilan Chingachguk bergan qo'lqopni oldingmi?

– Chingachguk?!

Normamat tog'a xaxolab kulib yubordi. – Chingachguk?! Nomi g'alati ekan, – dedi o'zini to'rg'a kulgidan to'xtatib. Gap bilan bo'lib, Tulkidara yetib qolganimizni sezmay qolibmiz. Shu payt uzoq-uzoqlardan bo'rtinuvillashi eshitildi.

Normamat tog'aning eshagi taqqa to'xtadi. – Yursang-chi, harom qotgur, – dedi Normamat tog'a jahl bilan eshagini niqtib.

– E... Jonga tegdi-ku, niqtayverishingiz. Harom qotsam, qotamanki, lekin yurmayman, – dedi u birdaniga pishqirib. Matrayimning yuzidagi sepkillari ucha boshladi. Men lol edim.

– Nega?! – dedi Normamat tog'a. – Bo'rildan qo'rqaman.

– Qo'rqma, bu axir Akella-ku! – dedim uni yursin deb.

– Akella! Akella! – dedi shosha-pisha Matrayim ham.

– Rostdanmi? – dedi eshak ishonib-ishonmay.

– Hushtagingni chalsang-chi, – dedi Matrayim menga qarab. Men bo'ynimdagi hushtagimni olib churillatib chala

boshladim. Tog'lar cho'qqisida Akella ko'rindi va uvillab qo'ydi.

– Ana, ishondingmi? – dedi Matrayim. – U seni yemaydi. Balkim yer, lekin biz borimizda yemaydi. To'g'rimi?

– Albatta, – dedi Normamat tog'a.

– Bo'ri insonning do'sti, eshaknimas. – Mayli, bir narsa bo'lsa, bolalarimga siz javob berasiz, – dedi eshak Normamat tog'aga qarab.

– Hayotini sug'urta qildirib olsangiz bo'larkan, – dedi Matrayim bilag'onligi tutib.

faqat halol odamlarga quyilishida – suv yo tushadi, yo tushmaydi. Dilingizga qarab. Oxirgi qizig'i: suv ichib nima niyat qilsangiz, ijobat bo'ladi. Mana, Matrayim suvni ichib bo'ldi-da: – Qani edi muzdekka muzqaymoq bo'lsaydi, – dedi. Shu payt yonimizdan «Kaptiva» bizdan yarim metr o'tib to'xtadi va eshak ochilib, shunaqangi bir go'zal tushdiki, hushim boshimdan uchayozdi. Qo'lida to'rtta muzqaymoq. U muzqaymoqlarni Matrayimga uzatar ekan, kulib qo'ydi.

MEN, MATRAYIM VA TAMTUMBOY

(Hikoya)



– Men kafilman, – dedim eshak bechoraga rahmim kelib. – Yuraver, Akella seni yemaydi. Bu gapdan keyin eshak chopqillab ketdi.

Keling, shu o'rinda sizga Tulkidara haqida qisqacha ma'lumot berib o'tay. Bizning To'raqishloq tugab Tulkidara boshlanadi. Ikki tomoni tog' cho'qqilari bilan boshlangan va maskanning chap tomonidan shovillab kattakon, uzunligi esimga kelmagan daryo oqib o'tadi. Tog'larga archalarni kimdir bir tekisda ekkanga o'xshaydi. Ular bolalarga o'xshab qoyalari tomonga intilayotganday tuyuladi. Tog'ning etak qismida jiydazor va xurmazorlar, do'lana-yu tog'olchalar o'sib yotibdi. Bu yerda Matrayimning aytishicha, bobokaloni ekan (to'g'rirog'i, qarq'alar «ekkan») o'ndan ortiq besh yuz yoshli yong'oqlar ham bor.

Dara o'rtasiga kelganda Normamat tog'aning eshagi taqqa to'xtadi.

– Yana nima bo'ldi? – jahllandi Normamat tog'a. Eshak boshini qiyshaytirib o'ng tomonni ko'rsatdi. Bu yerda sirli buloq bor edi.

– Voy, seni qara-yu, – dedi Normamat tog'a boshidagi do'ppisini yechib. – Cho'lladingmi?

Eshak «ha» deganday boshini qimiratib qo'ydi.

– Cho'llaganingni oldinroq aytsang bo'lmasmi? – dedi Matrayim.

– Syurprizlarni yaxshi ko'raman, – dedi eshak Matrayimga qarab jilmayib.

Suv ichish syurprizligini birinchi marta eshitishim edi. Normamat tog'a do'ppisida suv olib o'zi miriqib ichib oldi. So'ngra bizga uzatdi. Buloq suvi shu qadar shirin ediki, xuddi kimdir unga novvot qo'shib qo'yganga o'xshardi. Eng qizig'i, buloq suvi faslga qarab o'zgararkan. Qishda issiq, yozda iliq. Bahor, kuzda bilmadim. Yanayam qizig'i, buloq suvi teskari oqardi. Pastlikka emas, tepalikka. Endi eng qizig'i, buloq suvi

Matrayim bo'lsa, muzqaymoqni olaman deb eshak arava ichiga yiqilib tushdi. Normamat tog'aning boshidagi do'ppisi uchib ketdi. Qiz qanday kelgan bo'lsa, shunday ketdi.

TULKIDARA AFSONASI

Tulkidara va uning go'zal tabiati haqida bot-bot aytibman-ku, bu joy nima sababdan shunday atalishi haqida miq etmabman-a.

Shu vaqt Tulkidara haqida buvimdan eshitgan afsonani sizga ham aytgim keldi. Chunki Shotursun aka aytganday, har bir o'z Vatani sevgan odam o'zi yashab turgan joy nomi nimani anglatishini yaxshi bilishi kerak! Xullasi kalom, Tulkidara tarixi miloddan bir necha yuz ming yil nariga borib taqaladi. O'sha vaqtlarda buvimning aytishiga qaraganda, bu yerlar juda katta o'rmonzor bo'lgan. O'rmonzordagi jonzotlarni Saxiyqalb nomli sher boshqargan. Bu tinch o'lkaga Dajjol boshchiligidagi bir ko'zli devlar hujum qilishadi. Ular bu makonni bosib olib, jonzotlarni qul qilishni maqsad qilib olishgan edi. Saxiyqalb ularga qarshi mardonavor kurashadi. Devlar bu yerni bosib olishga kuchlari yetmaydi va hiyla yo'li bilan bosib olmoqchi bo'lishadi.

Bu ishda ularga ayyor tulki yordam bermoqchi bo'ladi. Ayyor tulki ularni tor so'qmoq yo'ldan boshlab borib, Saxiyqalb mamlakatining orqa tomonidan hujumga o'tsa, devlar g'alaba qozonishini aytadi.

Bu fikrga Dajjol boshchiligidagi devlar ko'nadi va ayyor tulki ortidan yo'lga tushishadi. Ular juda mashaqqat bilan tog' cho'qqisiga chiqishadi.

Cho'qqiga yetib kelishganda ayyor tulki do'sti Ko'kyol bo'ri tomonidan qo'yilgan belgi – chilvirni ko'rib sevinib ketadi va devlarga qarata shunday

deydi: – Mana, nihoyat Saxiyqalb mamlakatining orqa tomoniga yetib keldik. Ertaga ertalabdan cho'qqidan pastga tushib uni bosib olsak bo'ladi. Ana, qaranglar, jonzotlarning uylari shu yerdan ham ko'rinib turibdi, – deydi.

Dajjol boshchiligidagi devlar buni ko'rib sevinib ketishadi. Shunda Dajjol: – Hoy, ayyor tulki, sen o'zingni ayyorman deysan-da, a? Bilib qo'y, men sendan-da ayyorroqman. Endi seni menga keraging yo'q. U shunday deb ayyor tulkini qilichi bilan chopib tashlamoqchi bo'ladi. Tulki chap berib, Ko'kyol qo'ygan chilvirni xarsangtosh ustiga chiqib oladi: – Ha, men ayyor tulki, – deydi u Dajjolga qarab. Biroq, tulki o'z Vatani sotganini va Vatani sotqinlik qilganini hech eshitganmisan? Bu gaplarni eshitib Dajjol kulib yuboradi. – Bu sotqinlik bo'lmay nima? Axir sen emasmi, bizni shu yerga boshlab kelgan? – deydi. – To'g'ri, – deydi ayyor tulki, – bu meni Saxiyqalb bilan tuzgan rejam edi. Siz shuni yaxshi bilingki, ayyor tulki Vatani doimo sodiq qoladi. Sizlarni esa qo'rqinchli o'lim kutmoqda.

– Sen bu to'qimalaring bilan bizlarni qo'rtitolmaysan! Bu yaramasni ushlab o'ldiring, – deydi Dajjol jahl bilan.

– Mana bu chilvirni ko'ryapsizlarmi? – deydi ayyor tulki. – Hozir uni bir tortsam ustingizga yog'ilib tushadigan xarsangtoshlardan omon qolmaysizlar.

– Tortaver, – deydi Dajjol, – men uni allaqachon uzib tashlaganman va xaxolab kulib yuboradi. – Men senga sendan-da ayyorroqman, demaganmidim.

Ayyor tulki bir sakrab boshqa xarsangtosh ustiga chiqib oladi.

Ayyor tulki ularni aldash teparoqqa olib chiqaveradi. Va, nihoyat, asosiy qoyatosh yoniga yetib keladi. Devlar uni endi ushlab olmoqchi bo'lganlarida, ayyor tulki asosiy chilvirni tortib yuboradi. Shunda eng balanddagi qoyatosh sirg'anib tushibdi. Toshlar toshlarga urilib shu qadar baland tovush chiqaribdi, toshlar shovqinidan tog' ikkiga bo'linib ketibdi. Qoyatoshlar devlarni bosib qolibdi. Ayyor tulki ham Vatan ozodligi yo'lida halok bo'libdi. Shu-shu bu dara Tulkidara deb atalar ekan.

– Ayyor tulkinging ko'rsatgan qahramonligi tahsinga loyiq, – dedi Normamat tog'a ko'zlaridagi yoshlarini artib.

– Bu afsona Shiroq haqidagi rivoyatga o'xsharkan, – dedi Matrayim.

– Afsonalar bir xil bo'ladi, – dedi Normamat tog'a. Chunki ulardagi mazmun ham, mohiyat ham bir. Vatan, yurt ozodligi. Shuni bilki bolam, Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlar asrlar osha-da, aslo unutilmaydi. Ular biz bilan hamisha mangu yashaydi.

Men Normamat tog'aga hayron bo'lib qaradim, bu bilimdonlik unga qayerdan yuqdi ekan?

– Ha, bolam, – dedi Normamat tog'a menga qarab, – onda-sonda bilimdonligim jo'sh urib ketadi. Ayniqsa, mavzu Vatan, xalq haqida bo'lsa.

Otam ham, tog'alarim ham, buvalarim ham mana shu Vatan ozodligi uchun jon berishgan! Ularni unutil bo'ladimi? Normamat tog'a haq edi. Shu sababli ham indamadim. Matrayim esa piqillab yig'lardi. Shu payt Normamat tog'aning eshagi kishnab yubordi. Gap bilan bo'lib, Donishqishloqqa yetib kelganimizni bilmay qolibmiz.

(Davomi bor)

QUYI CHIRCHIQLIK YOSH IJODKORLAR

Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbuslari targ'iboti doirasida, xususan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kitob targ'iboti yuzasidan Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanida bo'lganimizda, tumandagi 13-, 16-, 27- va 28-umumta'lim maktablarining yosh qalamkashlari ijodi bilan tanishib, tumanda iste'dodli yoshlar ko'pligidan quvondik. Ularga ijod borasida o'z maslahatlarimizni berdik, o'zimiz bilan she'riy mashqlaridan olib qaytdik. Ularning she'rlarini bir qismini respublika nashrlarida chop etishga arzigulik deb topdik. Quyida iste'dodli tengdoshlaringizning ijod namunalari bilan tanishasiz.

UMID BILAN YASHANG

Men oy bo'lib dunyoni kezsam,
Quyosh bo'lib mehr ulashsam.
Chumoliday yugurib-yelsam,
Xalqim uchun jonimni bersam.

Ey, do'stlarim, orzu qilingiz,
Kitobni siz chin do'st bilingiz.
Shunda barcha orzular sari
Hayot sizni boshlar ilgari.

Umud bilan yashang olamda,
Shunda Oллоh qo'llar har damda.
Puxta bilim oling, intiling,
Bilimni baxt kaliti biling.

Zulfinur HAYITXO'JAYEVA,
13-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BILIM CHASHMASI

Kitob oftob demakdir,
Eng yaxshi do'st insonga.
Kitob o'qigan bola –
Yaqinlashmas yomonga.

Kitobga qo'ysang mehr,
Foyda berar har ishda.
Undan olgan biliming,
Tugamas yoz-u qishda.

Besh tashabbusning biri –
Kitob o'qib, o'rganmoq.
Ma'naviyat yo'lida,
Kelajakka intilmoq.

Kitoblarning turi ko'p,
Insonga do'st hammasi.
Axir aytadilar-ku,
Kitob – bilim chashmasi.

Kitobdan bahra olib,
Dono bo'lib qolgum bor.
Prezident maktabida,
O'qib, bilim olgum bor.

Yurtimiz ravnaqiga,
Hissa qo'shib men katta.
Yurtboshimiz ishonchin –
Oqlagumdur, albatta!

Zilola O'RINBOYEVA,
27-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ONA, SIZNI YAXSHI KO'RAMAN

Yoningda bo'lsa gar ko'ngling to'larkan,
Sen-chun ming tirilib, ming bor o'larkan.
U sening borlig'ing, jon-u jahoning,
Yerdagi farishtang onang bo'larkan.

Qancha sinovlaring bo'lsa ey hayot,
Barchasin menga ber, bardosh beraman.
Lek, onamni avayla, qilgin ehtiyot,
Men onamni yaxshi ko'raman.

Mushtariy ESHIMBOYEVA,
28-umumta'lim maktabi o'quvchisi

KITOB

Zikrilla NE'MAT,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir,
Respublika «Ma'rifat» targ'ibotchilari jamiyati a'zosi

Mening sevganim kitob,
Kitob – bamisli oftob.
Uni sevib o'qiyman,
O'zim ertak to'qiyman.

Qo'ymasman hech qo'limdan,
Adashtirmas yo'limdan.
Mudom quyoshdek porlar,
Orzular sari chorlar.

Avazbek NURMUHAMMEDOV,
13-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MEHRIBONIM

Oq yuvib, oq tarab o'stirdi bizni,
Shay turar bermoqqa hatto jonini.
Odobsizlik qilib bir kuni,
Men ranjitib qo'ydim onajonimni.

Shunda ham oh-faryod qilmadi onam,
Unsiz yig'ladi u, yum-yum yig'ladi.
Uzr so'rab, poyiga tiz cho'kdim shu dam,
Jajji yuragimni nedir tig'ladi.

Boshqa hech ranjitmam onajonimni,
Hayotim mazmuni – mehribonimni!

Sevara TOJIBOYEVA,
28-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ODAMDEK YASHAYLIK...

Pul nima, topilar sabr qilsangiz,
Bardoshni bu yo'lda yupanch bilsangiz.
Shu so'zni barchangiz takror qilsangiz,
Odamdek yashaylik, endi odamlar!

Keksalarimiz bor, bu asl baxtdir,
Otasi bor uyda har kursi taxtdir.
Yigitlarning nomus-u g'ururi ahddir,
Odamdek yashaylik, endi odamlar!

Qanotsiz qushdirman, keling bir ko'ring,
Akamsiz, opamsiz, keling, hol so'ring.
Do'st bo'lib qo'limni siz tutib yuring,
Odamdek yashaylik, endi odamlar!

Ortimdan g'iybatlar, otga minsam gar,
G'animlar quvonar yiqilsam, agar.
Iymonni but saqlab qiyomat qadar,
Odamdek yashaylik, endi odamlar!

Go'zaliya NISHONBOYEVA,
28-umumta'lim maktabi o'quvchisi



«QIZIQARLI GEOGRAFIYA» TURKUMIDAN

- ◆ Suv ifloslanishidan har yili 3.400.000 nafar odam vafot etadi.
- ◆ Dunyodagi toza suvning 90%i Antarktikada joylashgan.
- ◆ Jirafalar tuyalarga qaraganda ko'proq suvsizlikka chiday olishadi.
- ◆ Issiq suv sovuq suvga qaraganda tezroq muzlaydi.
- ◆ Inson terisining 64%i suvdan iborat.
- ◆ Birgina hojatxonaga kuniga o'rtacha 6 litr suv sarflanadi.
- ◆ Inson suyagining 31%i suvdan iborat.
- ◆ Dunyo suvlarining faqatgina 1%i ichishga yaroqli.
- ◆ Insonlar dunyodagi jami suvlarning taxminan 0.003%idan foydalana oladi, xolos.
- ◆ Bir stakan apelsin sharbatini ichish uchun, apelsin daraxti tagiga 50 stakan suv quyish kerak.
- ◆ Suvning tagida nafas olmasdan eng uzoq turgan odamning vaqt ko'rsatkichi 22 daqiqa.
- ◆ Bir oyda cho'milish xavzalaridagi o'rtacha 3785 litr obi hayot suvning bug'lanishi va boshqa sabablarga ko'ra yo'qolib bormoqda.
- ◆ Afrika va Osiyoning ba'zi joylarida suv olib kelish uchun kamida 6 kilometr yo'l yurish kerak bo'ladi.
- ◆ Taxminan 9 odamdan 1tasi ichimlik suvidan kasallanadi.
- ◆ Sovuq suv issiq suvga qaraganda og'irroq bo'ladi.
- ◆ AQSH aholisi 1970-yilga qaraganda hozirgi kunda kamroq suv iste'mol qiladi.
- ◆ Xitoyning taxminan 700 million aholisi bug'langan suv iste'mol qiladi.
- ◆ Dunyodagi muzlamagan toza suvning 20%i Rossiyaning Baykal ko'lida joylashgan.



Internet manbalari asosida Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Linwordni hal etgandan so'ng, chizmaning ostki qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan miloddan avvalgi 384-322-yillarda yashab o'tgan yunon faylasufi, qomusiy olim Aristotel yozib qoldirgan ikki hikmatni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

O'zbek futbol vatani, Farg'ona vodiysidagi tarixiy shahar			Atirgul suvidan tayyorlanadigan shirin ichimlik			Matoga igna bilan tikib tushirilgan gul, rasm			Sayyohlariga hamrohlik qiluvchi			O'yish xususiyatiga ega bo'lgan kimyoviy modda			Atmosfera tarkibidagi gazlardan biri	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14			
Shahar nomi bilan boshlanuvchi manzarali o'simlik, astraning tilimzdagi nomi			Chelaklarni ilgaklariga ilib yuk tashiladigan yog'och asbob			Narsaning ostki qismi, tubi			Biror narsa solinadigan xo'jalik buyumi			Ko'mir tusidagi rang			Bir avlod-dan tarqalgan nasl, avlod	

***** Aristotel hikmatlari *****

*	*	6	9	5	9	11	*	1	9	13	9	1	9	11	10	7	3	*	*
6	14	11	5	7	3	7	10	9	.	1	2	5	-	5	4	12	14	5	-
*	5	7	12	3	9	3	8	*	1	4	12	14	5	9	10	9	12	.	*

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8

22-iyul 2019

<p>Tong yulduzi</p> <p>Muassis: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi</p>	<p>Bosh muharrir Feruza ADILOVA</p> <p>Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p>TAHRIR HAY'ATI: Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)</p>	<p>Navbatchi muharrir Sayyora QODIROVA</p> <p>Rassom Feruzbek KAMOL o'g'li</p> <p>Sahifalovchi-dizayner Shaxobiddin MAXMADIYEV</p>	<p>«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. www.tongyulduzi.uz e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz telegram: t.me/tongyulduz Adadi - 6238 Buyurtma - V 3625</p>	<p>Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08</p>
---	---	--	---	---	---